



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti




No8(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 140 sahifa,
12-avgust, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Woosyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

The Role of English Collocations, Idiomatic Expressions, and Phraseological Units in Developing Communicative Competence in Higher Education	10
<i>Alimov Jamshid Ravshanovich</i>	
Milliy xoslangan lisoniy birliklarni teglash tamoyillari	16
<i>Yorkulov Zafarjon Bakirovich</i>	
Oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro tushunishning shaxs kognitiv rivojlanishiga ta'sirining psixologik xususiyatlari	20
<i>Vaydulla Madinabonu Muxtasam qizi</i>	
O'qituvchilar darslarni qanday qiziqarli tashkil etishlari mumkin?	26
<i>Dilnura Rustamovna Xamrayeva</i>	
Tarbiya texnologiyasi – talabalarda ilmiy va sinergetik dunyoqarashni shakllantirish omili sifatida	33
<i>Mamadaliyev Kamolidin Rahmatullayevich</i>	
Maktab direktor maslahatchilarida strategik boshqaruv tafakkurini rivojlantirishning psixologik omillari	40
<i>Rahmatova Nasiba Sobirovna</i>	
Umumta'lim maktablarida harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini sinfdan tashqari faoliyat orqali takomillashtirishning pedagogik-metodik tizimi	46
<i>Urinbayeva Dilfuza Abdumannobovna</i>	
Integrativ ta'lim texnologiyalari asosida bo'lajak geografiya o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish	50
<i>Xoldavlatova Gavhar Normaxmatovna</i>	
Klaster asosida TVET tizimida pedagogik innovatsiyalar	55
<i>Sobir Azizov</i>	
Muammoli ta'lim texnologiyasi orqali talabalarining kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish: "muammo" divergent–konvergent o'quv sikli	57
<i>Djumabayev G'ulomjon Xalillayevich, Yusupov Muxtorbek Roximovich</i>	
Oliy ta'lim muassasalari jismoniy tarbiya darslarida regbi elementlarini o'rgatishning tashkiliy-metodik asoslar	62
<i>E. E. Jumayev</i>	
Autentik materiallar asosida bo'lajak nemis tili o'qituvchilarining til ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasining eksperimental samaradorligi	65
<i>Jumayeva Gulxan Amrullayevna</i>	
Aleksandr Nil pedagogik ta'limotida shaxs erkinligini rivojlantirish mexanizmlari: ingliz filologiyasi talabalari misolida	71
<i>Atamirzayev Bahrom Bahodir o'g'li</i>	
TPACK modeli asosida ingliz tilida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning adaptiv metodik tizimi	75
<i>Omonova Maftuna Shermatovna</i>	
Multimodal vizual tayanchlar va flashcard asosidagi topshiriqlar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tilidagi og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi	82
<i>Sevara Alimurodova, Ayubova Said</i>	
Raqamlashtirish jarayonida elektron ta'lim resurslarini yaratishning metodik asoslarini takomillashtirish	88
<i>Nurmaxanov Kayrat Erpayizovich</i>	
Modulli ta'lim texnologiyalari orqali o'quvchilarda mustaqil fikrlashni shakllantirishning pedagogik asoslari	95
<i>Poyonova Fazilat Olimovna</i>	
Individual ta'lim sharoitida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash samaradorligini pedagogik tajriba-sinov va matematik-statistik tahlil asosida baholash	100
<i>Gulbaxor Abdullayevna Gaynazarova</i>	



Oliy ta'lim muassasalarida raqamli menejment tizimlarini joriy etish muammolari va ularni bartaraf etishning samarali yo'llari	106
Matnazarov Hurmatbek Egamberganovich	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim sifatini boshqarishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari	110
Sodiqov Rafikjon Turobjon o'g'li	
Bo'lajak tarbiyachilarning liderlik-boshqaruv kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari ...	114
To'xtayeva Dilrabo Nematovna	
Inklyuziv ta'lim: mohiyati, tamoyillari	119
Choriyeva Muxlisa Jumamurodovna	
The Role of Neuromuscular Dentistry in Dental Practice	123
Turayev Alimjan	
Orthodontics' Digital Transformation (Literature Review)	128
Khusanbaeva Jasmin Shavkatovna, Xazratov A. I.	
O'zbekiston SSRda ta'lim islohotlari davrida pedagogika bilim yurtlari faoliyatida o'qituvchilarni tayyorlash jarayonlari va amaliy muammolar	136
Mamatkulova Maxfuza Kozimovna	



UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA TA'LIM SIFATINI BOSHQARISHDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Sodikov Rafikjon Turobjon o'g'li

A. Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti
rahbar kadrlarning bilim darajasi va kasbiy mahoratini baholash
markazi direktori, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

ORCID: 0009-0006-2354-1645

Annotatsiya: Maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim sifatini boshqarishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari tahlil qilingan. Sun'iy intellektning ta'lim sifatini monitoring qilish, ma'lumotlarni tahlil etish, o'quv natijalarini prognozlash, individual ta'lim ehtiyojlarini aniqlash va boshqaruv qarorlarini qo'llab-quvvatlashdagi imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim sifatini oshirish jarayonida sun'iy intellektdan samarali foydalanishda tizimli, faoliyatli, kompetensiyaviy va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlarning ahamiyati asoslangan. Tadqiqot natijalari sun'iy intellekt texnologiyalarini pedagogik va etik tamoyillar asosida qo'llash ta'lim sifatini boshqarish samaradorligini oshirishga xizmat qilishini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, ta'lim sifati, ta'lim sifatini boshqarish, umumiy o'rta ta'lim, raqamli texnologiyalar, pedagogik yondashuv.

Abstract: The article analyzes the pedagogical potential of using artificial intelligence technologies in managing the quality of education in general secondary schools. It highlights the capabilities of artificial intelligence in monitoring education quality, analyzing data, forecasting learning outcomes, identifying individual educational needs, and supporting management decision-making. The study also substantiates the importance of systemic, activity-based, competency-based, and learner-centered approaches to the effective use of artificial intelligence in improving the quality of education in general secondary schools. The findings demonstrate that the application of artificial intelligence technologies based on pedagogical and ethical principles contributes to improving the effectiveness of education quality management.

Key words: artificial intelligence, education quality, education quality management, general secondary education, digital technologies, pedagogical approach.

Аннотация: В статье проанализированы педагогические возможности использования технологий искусственного интеллекта в управлении качеством образования в общеобразовательных школах. Освещены возможности искусственного интеллекта в мониторинге качества образования, анализе данных, прогнозировании результатов обучения, выявлении индивидуальных образовательных потребностей и поддержке управленческих решений. Также обоснована значимость системного, деятельностного, компетентностного и личностно ориентированного подходов к эффективному использованию искусственного интеллекта в процессе повышения качества образования в общеобразовательных школах. Результаты исследования показали, что применение технологий искусственного интеллекта на основе педагогических и этических принципов способствует повышению эффективности управления качеством образования.

Ключевые слова: искусственный интеллект, качество образования, управление качеством образования, общее среднее образование, цифровые технологии, педагогический подход.

KIRISH

Jahon miqyosida ta'lim tizimini raqamli transformatsiya qilish, sun'iy intellekt (Artificial Intelligence – AI) texnologiyalarini ta'lim jarayoniga hamda ta'limni boshqarish tizimiga integratsiyalash zamonaviy pedagogik tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. UNESCO, OECD, Yevropa Komissiyasi va boshqa nufuzli xalqaro tashkilotlar tomonidan ta'lim sifatini oshirish, boshqaruv qarorlarini ilmiy asoslash hamda ta'lim



jarayonini shaxsga yo'naltirilgan tarzda tashkil etishda sun'iy intellekt imkoniyatlaridan samarali foydalanish bo'yicha qator strategik hujjatlar va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Bugungi kunda AQSH, Buyuk Britaniya, Singapur, Janubiy Koreya, Xitoy va Finlyandiya kabi rivojlangan davlatlarda sun'iy intellekt asosida o'quv jarayonini monitoring qilish, ta'lim natijalarini prognozlash, boshqaruv qarorlarini qo'llab-quvvatlash hamda ta'lim sifatini baholashning raqamli mexanizmlarini joriy etish bo'yicha keng ko'lamli ilmiy-amaliy ishlar amalga oshirilmoqda. Ta'lim tizimida sun'iy intellekt texnologiyalarining qo'llanilishi nafaqat o'quv jarayonini individuallashtirish va adaptiv ta'limni tashkil etish, balki ta'lim muassasalarini samarali boshqarishning yangi imkoniyatlarini ham yaratmoqda.

Xususan, katta hajmdagi ma'lumotlarni (Big Data) tezkor tahlil qilish, ta'lim sifati indikatorlarini avtomatik monitoring qilish, pedagogik faoliyat samaradorligini baholash, o'quvchilarning o'zlashtirish dinamikasini prognozlash hamda ma'lumotlarga asoslangan (data-driven) boshqaruv qarorlarini qabul qilishda sun'iy intellektning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Natijada ta'lim sifatini boshqarish jarayoni subyektiv baholashdan obyektiv, aniq va tezkor tahlilga asoslangan boshqaruv modeliga o'tmoqda. Mamlakatimizda ham ta'lim tizimini raqamlashtirish, ta'lim sifatini boshqarishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish hamda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Maktab ta'limi tizimini rivojlantirishga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlarda ta'limni boshqarish jarayonlarini raqamlashtirish, elektron monitoring tizimlarini rivojlantirish, ma'lumotlar bazalarini integratsiyalash hamda zamonaviy axborot texnologiyalarini boshqaruv faoliyatiga keng joriy etish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. Bu esa umumiy o'rta ta'lim maktablarida boshqaruv faoliyatini takomillashtirish, rahbarlarning raqamli kompetentligini rivojlantirish va ta'lim sifatini boshqarishda innovatsion yondashuvlarni qo'llash zaruratini yanada kuchaytirmoqda.

Shu bilan birga, mavjud ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish asosan o'quvchilarning o'quv faoliyatini tashkil etish, adaptiv ta'lim, avtomatik baholash hamda raqamli ta'lim resurslarini yaratish masalalariga qaratilgan. Biroq umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim sifatini boshqarish nuqtayi nazaridan sun'iy intellektning pedagogik imkoniyatlari, uning boshqaruv samaradorligiga ta'siri, rahbarlik faoliyatida qo'llash mexanizmlari va ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilishdagi o'rni yetarli darajada kompleks o'rganilmagan. Mazkur holat ushbu yo'nalishda ilmiy izlanishlarni chuqurlashtirishni, sun'iy intellektning pedagogik va boshqaruv salohiyatini ilmiy asoslashni taqozo etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining jadal rivojlanishi hamda ularning ta'lim tizimiga keng joriy etilishi XXI asr ta'lim paradigmasining muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi. Ayniqsa, COVID-19 pandemiyasidan so'ng ta'limni raqamlashtirish jarayonlari jadallashib, ta'lim jarayonini boshqarishda intellektual tizimlardan foydalanish imkoniyatlari sezilarli darajada kengaydi. Xalqaro tahlillarga ko'ra, ta'lim sohasida sun'iy intellekt texnologiyalari bozori barqaror o'sib bormoqda va u ta'lim sifatini boshqarishning samarali vositalaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda^[2].

Ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt ta'lim jarayonini individuallashtirish, ma'muriy boshqaruvni optimallashtirish, ta'lim natijalarini tahlil qilish va boshqaruv qarorlarini qabul qilish samaradorligini oshirishda muhim pedagogik imkoniyatlarga ega. Shu bilan birga, olimlar sun'iy intellektni joriy etishda texnologik samaradorlik bilan bir qatorda ta'limning insonparvarlik tamoyillarini saqlab qolish zarurligini ham alohida ta'kidlaydilar^[3, 8].

So'nggi yillarda mazkur yo'nalish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar sonining keskin ortishi pedagogika, axborot texnologiyalari va ta'lim menejmenti fanlari kesishgan nuqtada yangi ilmiy yo'nalish shakllanayotganini ko'rsatmoqda. Bu esa umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim sifatini boshqarishda sun'iy intellekt texnologiyalarining pedagogik imkoniyatlarini chuqur o'rganish zarurligini belgilaydi.

Umuman olganda, raqamli texnologiyalar asosida ta'lim sifatini boshqarish zamonaviy ta'lim tizimining ajralmas va strategik ahamiyatga ega bo'lgan komponenti sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur jarayon nafaqat boshqaruv faoliyatining samaradorligini oshirish, balki ta'lim tizimini sifat jihatidan yangi rivojlanish bosqichiga olib chiqishga xizmat qiladi. Raqamli texnologiyalar yordamida boshqaruv jarayonlari tizimlashtiriladi, ortiqcha vaqt va resurs sarflari qisqartiriladi hamda qaror qabul qilish mexanizmlari optimallashtiriladi. Natijada boshqaruv faoliyati aniq, tezkor va ilmiy asoslangan shaklga ega bo'ladi^[7].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotning metodologik asosini umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim sifatini boshqarish jarayonini takomillashtirishga qaratilgan tizimli-faoliyatli, kompetensiyaviy, shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar tashkil etadi. Tadqiqotda sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'lim sifatini boshqarishdagi pedagogik imkoniyatlarini aniqlash, ularning boshqaruv jarayonlariga ta'sirini baholash hamda samarali foydalanishning pedagogik



shart-sharoitlarini asoslashga alohida e'tibor qaratildi. Tizimli yondashuv ta'lim sifatini boshqarishni maqsad, monitoring, diagnostika, tahlil, rejalashtirish, boshqaruv qarorlarini qabul qilish va natijalarni baholashdan iborat yaxlit tizim sifatida o'rganish imkonini berdi. Shu asosda sun'iy intellekt texnologiyalarining mazkur komponentlar o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni ta'minlashdagi imkoniyatlari tahlil qilindi. Tizimli yondashuv ijtimoiy-madaniy tayyorgarlik tizimini rivojlantirish va uning samarali faoliyatini ta'minlaydigan zaruriy tashkiliy-mazmunli shart-sharoitlarning mavjudligini ta'minlovchi yondashuv sifatida tadqiqot ishimizda muhim ahamiyat kasb etadi.

N.A. Muslimovning tadqiqotlarida tizimli yondashuv quyidagicha tavsiflanadi: "Tizimli yondashuv – ilmiy bilish hamda ijtimoiy amaliyot metodologiyasining yo'nalishi bo'lib, uning asosida obyektlarni tizim sifatida qabul qilinishi yotadi. Tizimli yondashuv tadqiqotchining obyekt yaxlitligini ochib berishga, uning aloqalari turli tiplarini aniqlashga hamda ularni yagona nazariy ko'rinishga keltirishga yo'naltiradi" ^[5].

Ta'lim sohasida global o'zgarishlar, raqamli transformatsiya, sun'iy intellekt va axborot texnologiyalarining keng joriy etilishi o'quvchilardan tizimli fikrlash ko'nikmalarini talab etmoqda. Tizimli fikrlash – bu voqea va jarayonlarni izchil, bog'liqlikda, sabab-natija zanjiri asosida tahlil qilish qobiliyatidir. Ushbu ko'nikma insonni turli fanlar o'rtasidagi o'zaro aloqalarni ko'ra bilishga, muammoga kompleks yondashishga, shuningdek, samarali qarorlar qabul qilishga o'rgatadi. Shu sababli tizimli fikrlashni rivojlantirish bugungi ta'lim jarayonining eng muhim maqsadlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda ^[4].

Tizimli fikrlash ta'lim jarayonidagi hodisa va muammolarni o'zaro bog'liq elementlardan tashkil topgan yaxlit tizim sifatida ko'rib chiqish, ular o'rtasidagi sabab-natija aloqalarini aniqlash hamda muammolarning uzoq muddatli oqibatlarini oldindan baholash imkonini beradi. P. Senge, J. Sterman va D. Meadows tadqiqotlarida tizimli fikrlash barqaror rivojlanish, murakkab tizimlarni tushunish va samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishning muhim vositasi sifatida talqin etilgan ^[1]. Faoliyatli yondashuv sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishni ta'lim sifatini boshqarishning amaliy jarayonlari bilan bog'liq holda o'rganishni nazarda tutdi.

Xususan, monitoring, diagnostika, tahlil, rejalashtirish, qaror qabul qilish va natijalarni baholash faoliyatlarida sun'iy intellektdan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilindi. I.A. Zimnyaya kompetentlikni shaxsning bilimga asoslangan, intellektual hamda ijtimoiy-kasbiy jihatdan muhim va shakllanib boruvchi sifatleri majmui sifatida talqin etadi ^[9].

N. Xomskiy esa kompetentlikni muayyan faoliyatni amalga oshirishga imkon beruvchi qoidalar tizimi va strukturani bilish bilan bog'laydi ^[10]. Mazkur yondashuvlardan kelib chiqib, kompetentlikni faqat bilim, ko'nikma va malakalar yig'indisi sifatida emas, balki ularni amaliy faoliyatda samarali qo'llashni ta'minlovchi shaxsiy va kasbiy sifatlar tizimi sifatida qarash maqsadga muvofiq.

Shu jihatdan kompetensiyaviy yondashuv maktab rahbarlari va pedagoglarning sun'iy intellekt texnologiyalaridan samarali foydalanishga tayyorgarligini baholashga yo'naltirildi. Bunda ularning raqamli, axborot-tahliliy va texnologik kompetensiyalari ta'lim sifatini boshqarish samaradorligining muhim omillari sifatida qaraldi. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv ta'lim sifatini boshqarishda o'quvchilarning individual ta'lim ehtiyojlari, imkoniyatlari va o'zlashtirish xususiyatlarini hisobga olishga asoslandi ^[6]. Sun'iy intellektning individual ta'lim natijalarini tahlil qilish va ta'lim jarayonini differensiallashtirish imkoniyatlari ushbu yondashuv doirasida ko'rib chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim sifatini boshqarishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish ta'lim jarayonini monitoring qilish, diagnostika, tahlil, prognozlash va boshqaruv qarorlarini qabul qilish samaradorligini oshirish imkonini berishini ko'rsatdi. Sun'iy intellekt yordamida o'quvchilarning o'zlashtirish ko'rsatkichlari, davomat, fanlar kesimidagi natijalar va boshqa ta'lim indikatorlarini tezkor tahlil qilish hamda mavjud muammolarni erta aniqlash mumkin. Tahlil jarayonida sun'iy intellektning ta'lim sifatini boshqarishdagi pedagogik imkoniyatlari monitoring, diagnostika, ma'lumotlarni tahlil qilish, prognozlash, individuallashtirish va boshqaruv qarorlarini qo'llab-quvvatlash kabi yo'nalishlarda namoyon bo'lishi aniqlandi. Ayniqsa, katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash va ular asosida ta'lim natijalaridagi o'zgarishlarni aniqlash maktab rahbariyati uchun tezkor va asoslangan qarorlar qabul qilish imkoniyatini kengaytiradi.

Tizimli yondashuv asosida sun'iy intellektning ta'lim sifatini boshqarishdagi faoliyati ma'lumotlarni yig'ish → monitoring → tahlil → prognozlash → qaror qabul qilish → natijalarni baholash ketma-ketligida amalga oshirilishi maqsadga muvofiqligi aniqlandi. Bu jarayonda sun'iy intellekt rahbar yoki pedagogning o'rini bosmaydi, balki ularning kasbiy faoliyatini tahliliy ma'lumotlar bilan qo'llab-quvvatlaydi.

Shuningdek, kompetensiyaviy yondashuv nuqtayi nazaridan sun'iy intellektdan samarali foydalanish maktab rahbarlari va pedagoglarning raqamli, axborot-tahliliy va AI kompetensiyalariga bevosita bog'liqligi aniqlandi. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv esa o'quvchilarning individual ta'lim ehtiyojlarini aniqlash va ularga mos pedagogik yordamni tashkil etishda sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish zarurligini ko'rsatdi.



Umuman, tadqiqot natijalari sun'iy intellekt texnologiyalaridan pedagogik maqsadga muvofiq, tizimli va mas'uliyatli foydalanish umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim sifatini boshqarish samaradorligini oshirishning istiqbolli yo'nalishi ekanligini ko'rsatdi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, tadqiqot natijalari sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim sifatini monitoring qilish, tahlil etish, prognozlash va boshqaruv qarorlarini asoslash samaradorligini oshirishini ko'rsatdi. Sun'iy intellekt ta'lim sifatini boshqarishda inson faoliyatini almashtiruvchi emas, balki pedagog va rahbarlarning kasbiy faoliyatini qo'llab-quvvatlovchi vosita sifatida qo'llanishi maqsadga muvofiq.

Shu asosda maktab rahbarlari va pedagoglarning AI va raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish; ta'lim sifatini monitoring qilishda sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish; ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv tizimini rivojlantirish; o'quvchilarning individual ta'lim ehtiyojlarini aniqlashda AI imkoniyatlaridan foydalanish; sun'iy intellektidan foydalanishda ma'lumotlar xavfsizligi va pedagogik-etik tamoyillarni ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Anderson, L. W., & Krathwohl, D. R. (2001). A Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing: A Revision of Bloom's Taxonomy of Educational Objectives. – New York: Addison Wesley Longman.
2. Антонова Д. А., Оспенникова Е. В., Спирин Е. В. Цифровая трансформация системы образования: проектирование ресурсов для современной цифровой учебной среды как одно из ее основных направлений // Вестник Пермского государственного гуманитарно-педагогического университета. Серия: Информационные компьютерные технологии в образовании. 2018. № 14. С. 5-37.
3. Буцык С. В. "Цифровое" поколение в образовательной системе российского региона: проблемы и пути решения // Открытое образование. 2019. Т. 23. № 1. С. 27-33.
4. Kasimova D. "Kompetensiyaviy yondashuv sharoitida tizimli fikrlashni rivojlantiruvchi pedagogik strategiyalar tizimi" // Inter Education & Global Study. Vol. 3, No. 10 (1), 2025, pp. 133-142.
5. Муслимов Н. А. Касб таълими ўқитувчисини касбий шакллантиришнинг назарий-методик асослари: Дис. ... д-ра пед. наук. – Тошкент, 2007. – 315 б.
6. Тарасова А. С., Симонова Г. И. Теоретико-методологические подходы к формированию профессионально ориентированной иноязычной коммуникативной компетенции студентов в условиях колледжа // Общество. наука. инновации (нпк-2022). Сборник статей XXII Всероссийской научно-практической конференции. В 2-х томах. Том 1. Киров, 2022. С. 784-791.
7. Sodiqov, R. T. o'g'li. (2026). Raqamli texnologiyalar asosida umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini samarali boshqarish.// "Maktab ta'limi: muammolar, izlanishlar, yechimlar", 6(3), 1-9. <https://doi.org/10.5281/zenodo.19325661>
8. Вайндорф-Сысоева М. Е., Субочева М. Л. "Цифровое образование" как системообразующая категория: подходы к определению // Вестник Московского государственного областного университета. Серия: Педагогика. 2018. № 3. С. 25-36.
9. Зимняя И. А. Ключевые компетентности как регулятивно-целевая основа компетентностного подхода в образовании. – М., 2004. – 42 с.
10. Хомский Н. Аспекты теории синтаксиса // Перевод с английского под редакцией и с предисловием В. А. Звегинцева. – Изд-во Московского университета, 1998. – 233 с.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №8(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.